

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA DARSLARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

*Saidova Gavhar Ergashovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada: Boshlang'ich ta'limda tarbiya darslarida innovatsion yondashuvi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, o'quv-tarbiya jarayoni, yondashuv, innovatsiya, metodika, pedagogika.

Абстрактный. В данной статье представлена информация об инновационном подходе к образовательным занятиям в начальных классах.

Ключевые слова: образование, образовательный процесс, подход, инновации, методика, педагогика.

Abstract. This article provides information on the innovative approach to education classes in primary education.

Key words: Education, educational process, approach, innovation, methodology, pedagogy.

O'zbekistonda talim-tarbiya sohasini isloh qilish maqsadida «Ta'lim-tarbiya to'g'risida»gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning amaldagi holati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan talim-tarbiya islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik

jihatdan qayta ko'rib chiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiy munosabatda bo'lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashish asosida, ularni talim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali talim jarayonida faol ishtirokini taminlashga barcha kuchlarini va etiborlarini qaratishni talab etadi. Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kirita olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu

sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, liberilizatsiyalashni tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning ehtiyoji bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni uning hoxish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmog'i talab etiladi. Shaxsga qaratilgan talim o'quvchini o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, ehtiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Innovatsiya: Yangilanish, o'zgarish; Biror – bir yangilikni kiritish; Yangilikni o'zlashtirish jarayoni. Innovatsiya – (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish). Demak, faqatgina innovatsion jarayonlarni pedagogik tizimga bog'lash yoki kiritish orqaligina talimda yuqori darajalarga erishish mumkin. Bunda yangiliklarni sekinlik bilan,

bosqichma – bosqich kiritish, uni qanchalik foyda keltirishini atroflicha o'ylab, o'lchab amalga kiritish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni pala – partish, tartibsiz, oldindan natija olishni mo'ljallamay amalga oshirish zarar keltirishi ham mumkin. Zero, innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin. Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv – tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv – tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborot – kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, insonni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Umuman o'quv jarayonida pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberizatsiya etishni. O'zining shaxsiy – kasbiy sifatlari va fazilatlarini tahlil qilishi, bu boradagi kamchiliklarni aniqlashi

va ularga barham berish yo'llarini izlashi; Pedagogik jarayonda do'stona, samimiy muhit, hamkorlik, hamijodkorlik va g'amxo'rlik vaziyatda ish faoliyatini olib borish; O'quvchi, talaba shaxsini hurmat qilish va ezozlash yo'llarini egallashi, o'qitish jarayonida ijodiy va qulay ijtimoiy – psixologik muhitni yaratish ko'nikma va malakalarini egallagan bo'lishi; O'quvchilarni rag'batlantirish va uni yangi metodlarini qo'llash ko'nikmalarini; O'zining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarga barham berishning samarali usullarini egallagan bo'lishi kerak. Albatta, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish talim sifati va samaradorligi oshirishni kafolatlaydi. Buning uchun o'qituvchilarning bilimlarini va pedagogik mahoratlarini takomillashtirib borishlari doimiy, uzluksiz holda olib borilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyatda ish yuritish uchun yuksak madaniy – insonparvarlik asosida talimga yondashishi talab etiladi. Insonparvarlik pedagogikasi shaxs va uni rivojlanishiga qaratilgandir. Uning belgilari: malumotlarni egallab olish va malum doiradagi mahorat va ko'nikmalar hosil qilish uchun texnik, jismoniy, aqliy rivojlanishiga diqqatni qaratilishidir. Mustaqil fikrlovchi va harakat

qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan kuchlarni to'plash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asoslangan qarorlarni tanlay olib, qaror qabul qila olishdir. O'quv jarayonini qayta qurish va yo'naltirishga zaruriy tashkiliy sharoitlarni yaratish. O'quv jarayonini insonparvarlashtirish yondashuvi asosida haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatish orqali avtoritar pedagogikadan voz kechib borish demakdir. Shaxsga shunday muhit, sharoit yaratish kerakki, u yuqori sifatli bilim, ko'nikma, malaka olsun va manaviy – marifiy, tarbiyaviy ishlarga befarq qolmasligi kerak. Insonparvar pedagogika maktabni o'quvchiga moslashuvi, qulay sharoit, ijodiy muhit yaratib, "psixologik himoya" bilan taminlashni talab etadi. Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'quvchi – o'qituvchi – o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O'quv jarayoni o'qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha

chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish o'zi – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya'ni o'quvchining: O'zi mustaqil mutoala qilishi, o'qishi asosida bilim olishi; O'zini – o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga; O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga; O'quv mehnatiga masuliyat hissi bilan qarashga; O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga; O'quv mehnatiga o'zida hoxish, istak uyg'ota olishga; Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga; Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur. Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin. Noan'anaviy o'qitish eng sodda qulay usul. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi. Ko'p tarmoqli. Sodda va oson. Bilim boyligini oshiradi. Vaqtdan yutadi. Qiziqarli o'tadi. Darsning samaradorligini oshiradi. Dunyoqarashni kengaytiradi. Tafakkurni rivojlantiradi.

O'quvchilarining diqqat etiborini tortadi. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi. Xotirani kuchaytiradi. Izlanishga chorlaydi. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi. O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat talim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga etkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechadi deb hisoblasa bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim darslarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish-ularida tashkil etiladigan talim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang'ich talim o'quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikga erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir, boshlang'ich talim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish; boshlang'ich talim darslari pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan

maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish; ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish; boshlang'ich talim darslari pedagoglarida talim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissini tarbiyalash; boshlang'ich talim darslarining o'qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish

ko'nikma va malakalarini hosil qilish; boshlang'ich talim darslari o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish; boshlang'ich talim darslari o'qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish; boshlang'ich talim darslarining samaradorligini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GE Saidova - PEDAGOGS jurnali, 2022. PIRLS-BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.
2. T Khojaoglu, SG Ergashovna - International Journal of Culture and Modernity, 2022The Practical Importance of Using the Scientific Heritage of the Eastern Thinkers in the Education of the Young Generation
3. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022
Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
4. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022/4/28
Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
5. SG Ergashovna - ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL ..., 2021 Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades.
6. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15
Xalq og 'zaki ijodi orqali o 'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
7. SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023